

KNAUF-Perlfiks

Gipsli montaj yelimi

Quruq qurilish aralashmalari

08/2025



Qo'llanish sohasi

KNAUF-Perlfiks maxsus qo'shimchalar qo'shilgan yopishqoq gips asosidagi quruq montaj aralashmasidir. KNAUF-qoplamalar (GKQ), izolyatsion materiallarni (mineral plitalar) notekis yuzali g'isht, beton, suvoq, g'ovakli beton asosli devorlarga yopishtirish, paztaroqli plitalarni (PTP) montaj qilish mo'ljallangan. Faqat xona ichida qo'llaniladi.

Qadoqlash va saqlash

KNAUF-Perlfiks 30 kg vazndagi qog'oz qoplarda qadoqlanadi. Qoplar quruq xonalarda yog'och tagliklarda saqlanadi. Yirtilgan qoplardagi material birinchi navbatda ishlatib yuboriladi. Shikastlanmagan qadoqda saqlash muddati - tayyorlangan sanasidan boshlab 6 oy. Tayyorlangan sanasi qopning yonboshida ko'rsatilgan. Saqlash muddati o'tgan mahsulot va qadog'i maishiy chiqindi sifatida utilizatsiya qilinadi.

Texnik xususiyatlari

Mustahkamligi:

- siqilishda: $\geq 3,0$ MPa;
- egilishda: $\geq 1,2$ MPa;
- Adgeziya: $\geq 0,3$ Mpa.

Yuzani tayyorlash

Qorishma yuzada notekis qotishidan saqlanish uchun KNAUF-Multigrund astari (gruntovkasi) bilan ishlov beriladi. Silikat g'isht terilgan devorlar va gazli penobetonli bloklarga KNAUF-Multigrund astari (gruntovkasi) bilan ishlov beriladi. Zich, silliq, namlikni kam shimuvchi va shimmaydigan yuzalar, masalan, beton, sement suvoq va penopolistirol plitalar yelimning yuza bilan adgeziyasi (birikishi) yaxshilanishi uchun KNAUF-Betokontakt gruntovkasi bilan ishlov beriladi. Surtildandan keyin astar (gruntovka) quyidagi muddatlarda quritiladi: KNAUF- Multigrund - 6 soat, KNAUF-Betokontakt -12 soat. Astarlangan (Gruntovkalangan) yuzaga chang tushishiga yo'l qo'yilmaydi.

DIQQAT!

KNAUF kompaniyasi boshqa ishlab chiqaruvchilar astari (gruntovkalari) ishlatilishi natijasidagi yuzaning sifati va uzoq xizmat qilishini kafolatlamaydi.

Materiallar sarfi

Material sarfi 1 m² gipskarton qoplamaga yo'qotishlarni hisobga olmagan holda ko'rsatilgan.

Material	O'lcham birligi	Miqdori
KNAUF-Perlfiks	kg.	5
KNAUF-Betokontakt	kg.	0,23
KNAUF-Multigrund	kg.	0,2

Ish tartibi

Ish o'tkazish sharoitlari

Ish o'tkazishda xona harorati +5 °C dan kam bo'lmasligi zarur. KNAUF-qoplamalarni yopishtirish ishlari uning o'zgartirilishiga aloqador barcha ishlar yakunlangandan keyin ekspluatatsion harorat-namlik rejimida o'tkazilishi kerak, bunda gipskarton qoplamalarning chiziqli qiyshayishi oldi olinadi. Masalan, xonada pol quyish yoki tekislash ko'zda tutilgan bo'lsa, ular quritilgandan keyin GKQ yopishtirish kerak.

Montaj qorishmasini tayyorlash

Bir qopga (30 kg) 15–16 l suv hisoblab, plastmassa bakka toza sovuq suv quyiladi, KNAUF-Perlfiks quruq aralashmasi sepiladi va bir xil, qumoblarsiz massaga aylangunicha qurilish mikseri bilan aralashtiriladi. Zaruriyatga ko'ra, suv yoki quruq aralashma qo'shiladi va yana aralashtiriladi. Quruq aralashma qorishishi uchun suv harorati +5 °C va +30 °C orasida bo'lishi kerak. Undan issiqroq suv yelim qorishmaning suv tutish xususiyatini yomonlashtiradi va uning yopishtirish xususiyatini pasaytirishi mumkin. Qorishmaga boshqa komponentlar qo'shish mumkin emas! Montaj aralashmasini qorishtirish ishlari davomiyligi ~ 30 daqiqa. Kirlangan idishlar va asbob-uskunalar materialni qo'llash davomiyligi qisqarishiga olib keladi.

Yopishtirish

Notekis yuzalarga (notekisliklar 20 mm gacha) yopishtirish KNAUF-Perlfiks gipsli yelimi yordamida amalga oshiriladi, u gipsli qurilish plitasi perimetri bo'ylab har 250 mm da va plita o'rtasida 350 mm masofada ustma-ust qilib surtib chiqiladi. Agar 12,5 mm qalinlikdagi gipsli qurilish plitasi yopishtirilayotgan bo'lsa, markazga bitta uzunlamasiga yopishtiruvchi qatlam surtiladi. Agar plita qalinligi 9,5 mm bo'lsa, markazga ikki uzunlamasiga qatlam surtiladi.

O'rnatiladigan panel asosga zich taqaladi va reyka orqali yengil zarbalar bilan berkitmaning bir xil yuzasiga keltiriladi. KNAUF-qoplamaning holatini yelim qorishmasi surtilganidan keyin 10 daqiqa davomida to'g'rilash mumkin. Agar berkitma ostidagi asos yuzasi juda notekis bo'lsa (20 mm dan ortiq), u holda KNAUF-Perlfiks qorishmasi va 10 sm kenglikdagi KNAUF-qoplama polosalari yordamida montaj yuzasi oldindan shakllantirib olinadi (qarang: Texnik varaqa 61- bet). Mineral uvadali plitalarni mahkamlashda avvaldan plitaning butun yuzasiga KNAUF-Perlfiks qorishmasi kurakcha bilan yupqa qilib yedirib surtish kerak.

KNAUF-Perlfiks qorishmasini KNAUF-qoplamasi va izolyatsion materiallar yuzasiga surtishda qorishmaga suv yoki quruq aralashma qo'shish mumkin emas!

Ish tugagach darhol asbob-uskunalar suv bilan yuvilishi lozim.

Asboblar

- 50-90 litrli plastmassa bak;
- Mikser (N > 800 Vt);
- Zanglamaydigan po'latdan kurakcha.

MUHIM!

Quruq gips aralashmalar turli rangda bo'lishi mumkin - oqdan tortib, to kulranggacha, hatto, pushti bo'lishi mumkin. Bu gips toshida tabiiy qo'shimchalar mavjudligi bilan tushuntiriladi. Aralashma rangi uning xususiyatlariga hech qanday ta'sir qilmaydi.

Manzil:

Toshkent sh, Shaxrisabz q, 2, Tower 2, 5 qavat

Kontaktlar:

+998 78 150 11 59

+998 78 150 11 60

+998 78 150 11 61

KNAUF material va konstruksiyalarning asosiy parametrlariga ta'sir qilmaydigan o'zgarishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Barcha texnik xususiyatlar KNAUF firmasi tavsiya qilgan materiallardan foydalangan holatdagina ta'minlanadi. Materiallarni qo'llashga doir barcha ko'rsatmalar muayyan hisob-kitobga asoslangan bo'lib, ko'rsatilganidan farq qilgan holatda aniqlashtirilishi talab etiladi. Qo'shimcha maslahat uchun KNAUF texnik xizmatiga murojaat qiling.